
BIR MARTALIK NAFAQA PULI KIMLARGA BERILADI?

2024- yil 4- mart kuni Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga ba’zi ijtimoiy nafaqalarni to‘lash tartibini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 110- sonli qarori qabul qilindi.

→Bunda, 2024- yil 1- apreldan boshlab farzand tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa puli:

birinchi farzandi uchun — barcha ayollarga;

ikkinchi farzandi uchun — farzand tug‘ilgan paytda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimiga kiritilgan oilaning a‘zosi bo‘lgan ayollarga rasmiylashtiriladi.

Qolgan barcha holatlarda farzand tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa pulini rasmiylashtirish rad etiladi.

Eslatib o‘tamiz, bola tug‘ilganda beriladigan bir martalik nafaqa miqdori mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 70,3 foizi (hozirda 738 150 so‘m)ga teng.

Quvasoy shahar “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi



[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-06-25 19:21:54